

MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TUZISHNI MUAMMO VA YECHIMLARI

Eshonqulov Azamat Abdiraximovich

TDIU Buxgalteriya hisobi va hisoboti kafedrasи

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori

Abdullaev Avazbek Abdurozzoq o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya

Akademiyasi magistranti

Annotation. Ushbu maqolada moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishda yuzaga keladigan asosiy muammolar ko‘riladi, shu jumladan, standartlararo farqlar, turli mamlakatlarda qo’llaniladigan amaliyotlar va ularning tasirini ko’rib chiqadi. Shuningdek, maqola bu muammolarni hal qilish uchun taklif qilingan yechimlarni va ularning amaliyotdagi samaradorligini baholaydi. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini qabul qilish va amalga oshirish jarayonidagi qiyinchiliklar va ularning yechimlariga oid tavsiyalar taqdim etiladi. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar asosida yanada sifatli va aniq qilish uchun muhim tavsiyalar beradi va moliyaviy hisobotlar bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiqlikni oshirish yo'nalishidagi istiqbollarni ko'rsatadi.

Kalit so’zlar. Moliyaviy hisobotlar, xalqaro standartlar, muammolar va yechimlar, standartlararo farqlar moliyaviy hisobotlarni tuzish.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashmoqda, bu esa buxgalteriya hisobi va audit tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirishni talab qiladi. Bu jarayonda aktsiyadorlik jamiyatları (AJ) mamlakat iqtisodiyotining muhim segmenti sifatida asosiy ro’l o‘ynaydi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) joriy etilishi moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligi va ishonchlilagini oshiradi, investorlarning ishonchini mustahkamlaydi va chet el kapitalini jalg qilishga yordam beradi. Moliyaviy hisobotlar har qanday tashkilotning iqtisodiy holatini va moliyaviy faoliyatini aks ettiruvchi muhim hujjatlardir. Ular investorlar, kredit beruvchilar, boshqaruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun tashkilotning moliyaviy holatini tushunishga yordam beradi. Biroq, moliyaviy hisobotlarning sifatini va taqqoslanish imkoniyatini ta’minlash uchun xalqaro standartlarga muvofiqlik juda muhimdir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) kabi xalqaro standartlar moliyaviy hisobotlarni tuzishda yagona va bir xil qoidalarni belgilaydi, bu esa global miqyosda hisobotlarni solishtirishni osonlashtiradi. Hozirgi kunda ko’plab mamlakatlar va tashkilotlar xalqaro standartlarga o’tish

jarayonida bo'lib, bu jarayon bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Standartlararo farqlar, milliy qonunchilik va amaliyotlar, hamda hisobotlarni tayyorlashda yuzaga keladigan texnik va metodologik qiyinchiliklar ushbu muammolarni tashkil etadi. Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashdagi qiyinchiliklar va ular bilan bog'liq muammolar hamda bu muammolarni bartaraf etish uchun amaliy tavsiyalar va yechimlar taklif etilishi lozim. Hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash orqali tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy shaffoflikni oshirish va global iqtisodiy o'zaro aloqalarni yaxshilash imkoniyatlari baholanadi.

Adabiyotlar sharxi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, ularning qo'llanilishi va jahon miqyosida tan olinishi hamda ushbu standartlarga o'tishning dolzarbliyi va ahamiyati borasidan iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan keltirilgan fikr-mulohazalari va tadqiqot natijalariga to'xtalib o'tiladi. M. Marpatov moliyaviy hisobotning kontseptual asoslarini quyidagicha ta'riflaydi: "Kontseptsiya lotincha "conceptio" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida toplash, birlashtirish, tizim yoki ibora ma'nosini anglatadi. Mazmunan esa biror fan yoki tadqiqot asoslari bo'yicha umumqabul qilingan qoidalar to'plami, shuningdek, biror predmet yoki voqeani tushunish, ko'rib chiqish usullari yoki unga nisbatan yondashuvlar va qarashlar tizimi sifatida izohlanadi. Moliyaviy hisobot nuqtai nazaridan moliyaviy hisobot tuzishda qo'llaniladigan amaldagi qoidalarni baholash va ularni rivojlantirish asoslaridir. A.A.Karimov A.K.Ibragimov N.K.Rizayev N.M. Imamovalar tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – bugungi kunda jahon mamlakatlarida qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobining xalqaro etalonini hisoblanadi. Hozirgi kunda 60 dan ortiq shunday standartlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. 90 ga yaqin davlat Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi tomonidan e'lon qilingan MXHSlarga to'liq mosligini va audit hisobotlarida bunday muvofiqlikni tan olishi, taxminan 120 davlat va hisobot beruvchi yurisdiksiyalar mahalliy listing kompaniyalari uchun MXHSlar bo'yicha hisobotlarni ishlab chiqishiga ruxsat berishi yoki talab qilishi bu mulohazani to'la qonli oqlaydi. Bugungi kunda ochiq moliya bozorlariga talab har qachongidan ham kuchliroq. Fredrick D.S fikricha Globallashuv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni solishtirish va uyg'unlashtirishni birinchi o'ringa qo'yadi. Shu sababli, ko'plab davlatlar moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini joriy etishda juda ko'plab o'ziga xos yo'llarni bosib o'tgan va endilikda qo'llashni boshlayotgan davlatlar ham bunga intilmoqda. Emmanuel T. De Jorj ta'rif berishicha, MHXS ning asosiy maqsadi – butun dunyo bo'ylab yagona standartlar orqali moliyaviy hisobotlarning solishtirilishini yaxshilash va yuqori sifatli buxgalteriya hisobini rag'batlantirish ekanligidir. Shuningdek, MHXS maqsadi, dunyodagi barcha mamlakatlarning moliyaviy hisobotlarining eng yaxshi jihatlarini inobatga olgan holda, ularni takomillashtirib hamma uchun maqbul bo'lgan moliyaviy

hisobotlarning universal standartlarini yaratish va hayotga joriy qilish yo'llarini izlab topishdir. Yason Gordon takidlaganidek, MHXS xalqaro darajada tushunarli bo'lgan va taqqoslanadigan biznes masalalari uchun umumiy global moliyaviy tildir[8]. U shuningdek, MHXSni butun dunyo bo'ylab moslashtirishning quyidagi afzalliklarini sanab o'tdi: aksiyadorlar va tartibga soluvchilar uchun sifatli moliyaviy ma'lumotlar, yaxshilangan taqqoslanuvchanlik, natijalarning shaffofligi oshishi, transchegaraviy listingni himoya qilish qobiliyati oshishi, global operatsiyalarni yaxshiroq boshqarish va kapital xarajatlarni kamaytirish. Shu sababli ham bugungi globallashuv jarayonida moliya tashkilotlari, yirik korporatsiyalar va hatto mamlakatlar miqyosida MHXSlar tan olinib, hisobot tizimini yuritishda tayanib kelinmoqda. Xususan, O'zbekistonda ham bu jarayonda faol ravishda iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat darajasida MHXSni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, MHXSni qabul qilgan mamlakatlar bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'sishini boshdan kechirgan. Xususan, Buyuk Britaniya, Italiya va Germaniya kabi mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar ko'ra, MHXSni joriy etish buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining sifati yaxshilaganligi aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, MHXS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar yuqori sifatli, shaffof va taqqoslanadigan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu xalqaro tashkilotlar uchun foydalidir, chunki u investorlar, kreditorlar, moliyaviy Tahlilchilar va moliyaviy hisobotlarning boshqa foydalanuvchilariga o'z investitsiyalari samaradorligini har tomonlama baholashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, monagrafik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Taxlit va natijalar. Moliya hisobotlari tashkilotlarning moliyaviy holatini va faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlardir. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IAS) yoki moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) bu hisobotlarning global darajada yagona talablarga javob berishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Biroq, ushbu standartlarga o'tish va ularni to'liq qabul qilish jarayonida bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu maqolada bu muammolarni ko'rib chiqamiz va ularni hal qilish yo'llarini tavsiya qilamiz. Standartlarga moslashishdagi qiyinchiliklar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga moslashtirish ko'plab tashkilotlar uchun murakkab jarayon bo'lishi mumkin. Yangi standartlarga o'tish va mavjud tizimlarni qayta ko'rib chiqish zarurati ko'p vaqt va resurslarni talab qiladi. Tashkilotlar uchun bu jarayonni soddallashtirish va yaxshilash uchun maxsus treninglar, konsultatsiyalar va tizim integratsiyasi bo'yicha mutaxassislar bilan ishslash tavsiya etiladi. Har bir tashkilotning moliyaviy faoliyati va strukturasida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu, standartlarga moslashishni qiyinlashtirishi mumkin. Tashkilotlar o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda, moslashtirilgan yechimlarni

ishlab chiqish va xalqaro standartlarni amalda qanday qo'llashni o'rganish muhimdir. Shuningdek, xalqaro tajriba va maslahatlardan foydalanish mumkin. Ba'zi mamlakatlarda xalqaro standartlar mahalliy qonunchilik bilan to'liq mos kelmasligi mumkin, bu esa muammolarga olib keladi. Mahalliy qonunchilik va xalqaro standartlar orasidagi farqlarni aniqlash va zarur bo'lgan muvofiqlikni ta'minlash uchun huquqshunoslar va moliya ekspertlari bilan maslahatlashish kerak. Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda hisobotlarning to'g'riliqi va aniqligini ta'minlash muhimdir. Bu, ayniqsa, murakkab va noaniq moliyaviy operatsiyalarni hisobga olishda qiyin bo'lishi mumkin. Hisobot tayyorlash jarayonida sifat nazoratini kuchaytirish, malakali auditorlar va nazoratchilar bilan ishlash va doimiy ravishda standartlarga moslashishni tekshirish lozim. Yangi moliyaviy standartlarga o'tish uchun zarur bo'lgan texnologik infratuzilma va dasturiy ta'minotni yangilash qimmat va murakkab bo'lishi mumkin. Zamonaviy moliyaviy dasturiy ta'minotlarni joriy etish va avtomatlashtirilgan yechimlarni qo'llash orqali texnologik muammolarni kamaytirish mumkin. Shuningdek, texnologik integratsiya va treninglarga sarmoya kiritish muhimdir.

XULOSA

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish tashkilotlar uchun bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, ushbu muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun aniq strategiyalar va yechimlar ishlab chiqish mumkin. Tashkilotlar uchun xalqaro standartlarga moslashish, ularning global moliyaviy hisobotlarni yaxshilash va xalqaro bozorlar bilan raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Buning uchun mutaxassislar bilan maslahatlashish, malakali auditorlar va nazoratchilarni jalb etish, hamda zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagagi 4611- son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/acts/2931253>.
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Tarjima. A. Rizaqulov, B.Xasanov, A.Usanov, Z.Mamatov. T.: - 2004.
4. Jalolova D. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari - T.: Moliya instituti, 2004. - 25 b.
5. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. - T.: —Navro'z, 2016 y.

6. Karimov A.A., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Imamova N.M. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, Darslik, - T.:2021, 332 b.
7. .AICPA, IFRS FAQs, www.ifrs.com.
8. Fredrick D.S. Choi & Gary K. Meek (2005) International Accounting, Pearson Prentice Hall, Upper Saddle River, pp.4- 18.
9. Aralov Sobir Javli o‘g‘1 o‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning dolzarbliji va ahamiyati. Iqtisodiyot va ta’lim / 2023-yil 3-son.
10. Azamat Abdirakhimovich Eshankulov. Buxgalteriya balansi: turlari, tarkibiy tuzilishi va unga qo‘yiladigan talablar. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №11.
11. DENorbekov , A.T.To‘raev , Sh. Sh.Rahmonov . Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo’llanma. T.: Iqtisodiyot va moliya , 2019. -332 b.
12. Alisher Komilovich Baxadirov “Xalqaro standartlar asosida lizing operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent - 2022 .
13. Rahmonov Sherzod Sherkulovich “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslar hisobi va tahlilini takomillashtirish” mavzusida falsafa doktori (falsafa doktori) dissertatsiyasi, Toshkent sh. – 2023 yil.
14. Eshonqulov Azamat Abdiraximovich “Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent shahri – 2023 .